

DARS JARAYONLARIDA KAHOOT VA ISPRING DASTURLARIDAN FOYDALANISH VA UNING IMKONIYATLARINI O'RGANISH

Usmonova Gilshod Ibrohimovna

teacher of Bukhara State University, Bukhara usmonovagulshod@gmail.com

Amonova Sabinabonu Umidovna

student of Bukhara State University, Bukhara

sabinaamonova449monova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning muhim o'рни, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish usullarini tubdan o'zgartirayotgani, raqamli texnologiyalar o'quvchilarga bilimlarni tezroq, qulayroq va samaraliroq egallash imkonini berishi haqida ma'lumot berilgan*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi, Kahoot, Ispring, platforma, baholash tizimi, innovatsion yondashuvlar, kreativlik .*

Kirish.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish usullari tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar bilimlarni tezroq, qulayroq va samaraliroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli raqamli ta'limning nazariy asoslarini o'rganish pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar — bu ma'lumotlarni yaratish, saqlash, qayta ishlash va uzatishni elektron vositalar yordamida amalga oshiruvchi texnologiyalar majmuasidir. Ta'lim tizimida ular o'quv jarayonini avtomatlashtirish, interaktivlashtirish va masofadan boshqarishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga jadal kirib kelayotgani biologiya fani O'qitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'limni taqdimotlar, bloglar, videolar va boshqa raqamli vositalar yordamida tashkil etish talabalarning kreativligini rivojlantirish, ularni izlanishga undash va bilimlarni amaliy hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Qolaversa hozirgi zamonaviy texnologiyalar asrida Kahoot platformasidan ham foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Bu orqali O'quvchilar qiziqishini yanada oshirish va fanga nisbatan mehr qo'yishga ham undaydi. Chunki ushbu platforma juda tez va aniqlikda natijalarni chiqarib berishga moslashgan bo'lib, bunda O'quvchilarning O'z bilim saviyasiga qarab adolatli baholash imkoniyatini beradi. Bu esa O'quvchilarning fanga nisbatan qiziqish va fikrlash doirasining kengayishi, diqqat etiborni bir joyga jamlash orqali tezlik bilan ishlash imkoniyati

beradi. Bu orqali esa O'quvchilarni mavzuning O'zlashtirganlik darajasini juda tez va oson aniqlash imkoniyatini beruvchi platforma hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning xalq ta'limidagi O'rnini ham beqiyos. Bugungi kunda ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Shu sababli Kahoot va iSpring Suite kabi zamonaviy platformalarda ishlashni o'rganish juda dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish bo'yicha qator davlat dasturlari va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron resurslardan samarali foydalanish va zamonaviy ta'lim muhitini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ham ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni keng joriy etish, o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan.

Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, darslarni qiziqarli tashkil etish hamda interfaol ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Kahoot va iSpring Solutions platformalari biologiya darslarini samarali tashkil etishda keng foydalaniladigan vositalardandir.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim biologiya fanini samarali o'qitishda, talabalarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'naltirishda, raqamli vositalardan samarali foydalanishda muhim o'rin tutadi. Bu uslub talabalarda nafaqat biologik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki XXI asr ko'nikmalarini axborot texnologiyalaridan foydalanish, jamoada ishlash, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Kahoot! — bu gamifikatsiya (o'yinlashtirish) asosida ishlaydigan ta'lim platformasi bo'lib, o'quvchilarning bilimini tekshirish, mustahkamlash va rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Platforma 2013-yilda Norvegiyada yaratilgan. Asosiy xususiyatlari: Interaktiv testlar (quizlar) yaratish imkoniyati, telefon, planshet yoki kompyuter orqali foydalanish, tezkor savol-javoblar, guruh bo'lib yoki individual ishlash imkoniyati ham mavjud. Qolaversa Kahoot platformasida yana O'quvchilarni oson dars jarayonlariga jalb eta oladi, raqobat muhitining mavjudligi tufayli O'quvchilarda O'qishga nisbatan motivatsiyani oshiradi, O'quvchilar esa platformadan qiziqarli va oson tarzda foydalanishadi.

iSpring Suite — bu professional e-learning kontent yaratuvchi vosita bo'lib, u orqali to'liq o'quv kurslari, testlar va simulyatsiyalar ishlab chiqiladi. iSpring Suite — bu elektron o'quv kurslari va taqdimotlar yaratish uchun professional dastur. Ushbu platforma Power Point asosida ishlaydi, unda video darslar va testlar yaratish imkoniyati mavjud, interaktiv mashqalar – dialog va testlar kabi topshiriqlar yaratish

mumkin , onlayn testlar ham yaratish imkoniyatini beradi. Bu platforma O'quvchilar uchun qulay interfeysga ham egadir. Professional O'quv materiallari yaratish imkoniyati qolaversa masofaviy ta'lim jarayonlari uchun ham bu platforma manfaatli bo'lib xizmat qiladi. Bu platforma orqali bilim olish jarayonida masofaning umuman salbiy natijalari mavjud emas emas, chunki platforma orqali masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirsa bo'ladi

Xulosa

Kahoot va Ispring platforma imkoniyatlaridan keng foydalanish quyidagi ijobiy xulosalarga kelindi: O'quvchilarda axborot texnologiyalaridan yanada samaraliroq va kenrgroq O'rganish istagi paydo bo'ldi , uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish va yanada chuqurroq O'rganishga xoxish ortdi . Darslar faqat ananaviy uslabda qolib ketmasdan zamon bilan ham nafas bo'lib , yanada darsni qiziqarli va mazmunli bo'lishi uchun harakat qilish kerak. Bunda faqat O'qituvchi emas balki aksariyat O'quvchilarning O'zi harakat qilishlari kerak. KO'plab O'quvchilar ma'lumotlarni Rasmlar ,vidiolar va animatsiyalar orqali tusgunish oson va qiziqarli bo'ladi albatta. Bunda esa zamonaviy plastformalar imkoniyatlaridan biri albatta bu – visual O'rganishga nisbatan qiziqsh ortdi. Bunda O'quvchilar eshitgandan ko'ra ko'proq ko'z bilan ko'rib , qo'l bilan ushlab o'rganilgan ma'lumotlar uzoq xotiraga saqlanadi. Biz yoshlar yurtboshimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan imkon qadar samarali va unumliroq foydalanishga harakat qilishimiz lozim . Chunki tashkil etilayotgan barcha sayh- harakatlar zaminida biz yoshlarning rivojlanishimiz uchun va kelajakda yurtimiz ravnaqiga foydasi tegadigan yetuk kadrlar bo'lib yetishishimiz qilinayotgan ishlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdurahmonova, N. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonida ularning qo'llanilishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
- 2.Abdullayeva, D. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: Noshir, 2021.
3. Ahmedov, B. Biologiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
- 4.Allayarov, S. Pedagogik mahorat va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Hossaini Z. et al. Direct C–H difluoromethylation of heteroaromatic compounds: emerging methods and developments through 2025 //RSC advances. – 2026. – T. 16. – №. 23. – C. 21115-21128.
6. Ibrohimovna U. G. et al. MAKTABDA BIOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Modern education and development. – 2026. – T. 46. – №. 1. – C. 150-154.

7. Ibrohimovna U. G., Abduvohidovna G. G. The Effect OF Mineral Elements on the Growth OF Indoor Plants //World Bulletin of Public Health. – 2022. – T. 51. – C. 48-49.

8. Muxammedjonovna G. S., Ibrohimovna U. G. Biological End Ecological Properties OF Oil Plants //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – T. 12. – №. 3. – C. 673-676.